


B-01-07/601
12.11.2025yil



Viloyat hokimligida o'tkazilgan yig'ilishning
B-01-07/601 - son BAYONI

Raislik qildi: M.B.Azimov - Qashqadaryo viloyati hokimi

Qatnashdilar: Viloyat hokimining tegishli o'rinbosarlari, kotibiyat mudirlari, viloyatdagi boshqarma, korxona, tashkilotlar rahbarlari va tuman (shahar) hokimlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

**Jamiyatda maromiylik kayfiyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-
ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida**

(Azimov, Qobilov, Kushakov, Aminova, Karomova, Ravshanov,, Azimov)

Yig'ilishda, so'nggi yillarda jamiyatda ortiqcha isrofgarchilik, dabdababozlik, shuhratparastlik va me'yorni saqlamaslik kabi salbiy holatlar kuzatilayotganligi ayniqsa, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarning haddan tashqari dabdabali o'tkazilishi, ba'zi oilalar tomonidan ijtimoiy imkoniyatlardan qat'i nazar, hashamatli bazmlar tashkil etish, mehmonlar sonini ortiqcha ko'paytirish, qimmatbaho sovg'a-salomlar, qimmat libos va bezaklar orqali "ko'z-ko'z" qilish holatlari jamiyatda ma'naviy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi ta'kidlandi.

Mazkur illatlarning oldini olish va jamiyatda "maromiylik" tamoyillariga asoslangan sog'lom hayot tarzini qaror toptirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrdagi 589-sonli qarorida to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarning belgilangan tartibda o'tkazilishini qat'iy nazoratga olish, ortiqcha isrofgarchilik va dabdababozlik holatlarining oldini olish, shuningdek, aholi ongida me'yoriy va ma'naviy madaniyatni mustahkamlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilganligi aytib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar muhokama qilinib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi (Z.Aminova), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (K.Karomova), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (O.Ravshanov), O'zbekiston musulmonlari idorasining viloyatdagi vakili (R.Usmonov), "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi (B.Raximov)ning jamiyatda maromiylik kayfiyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish haqidagi takliflari ma'qullansin.

2. Jamiyatda maromiylik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish bo'yicha viloyat tashkiliy qo'mitasi tarkibi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi (**Z.Aminova**), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (**K.Karomova**), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (**O.Ravshanov**), O'zbekiston musulmonlari idorasining viloyatdagi vakili (**R.Usmonov**), "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi (**B.Raximov**) bilan birgalikda:

bir hafta muddatda jamiyatda maromiylik kayfiyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish bo'yicha boshqarma va idoralar bilan tegishli choralarni ko'rsin;

joylarda oilaviy tadbirlar, to'ylar, ma'raka va marosimlarda ortiqcha dabdababozlik, isrofgarchilik va shuhratparastlikning oldini olishga hamda jamiyatda maromiylik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ochiq muloqotlar, seminar-treninglar, ijtimoiy va media loyihalarni amalga oshirsin.

4. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (**K.Karomova**), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (**O.Ravshanov**), O'zbekiston musulmonlari idorasining viloyatdagi vakili (**R.Usmonov**), tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda mahallalarda "mahalla yettiligi", mahalla faollari, xotin-qizlar va aholi o'rtasida **"Maromiylik va iste'molchilik madaniyati"** mavzusida **"Siyosiy-ma'rifat soatlari"**ni tashkil etsin.

5. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (**K.Karomova**), tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, aholi orasida milliy birdamlik, tinchlik, shukronalik, o'zaro mehr-oqibat va milliy qadriyatlarni targ'ib etishga, ularda salbiy illatlarning oldini olishga qaratilgan "Kinokarvon" loyihasini amalga oshirsin hamda loyiha doirasida to'y va marosimlarni ixchamlashtirish, isrofgarchilik va ortiqcha dabdababozliklarning oldini olish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini o'tkazsin;

to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishidagi isrofgarchilikning oldini olish, oilaviy tadbirlarda maromiylikni saqlash va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik bo'yicha media-kampaniya targ'ibotini amalga oshirsin;

targ'ibotchilar guruhi tomonidan hududlardagi mahalliy targ'ibotchilar uchun jamiyatda maromiylik madaniyatini shakllantirish, aholi o'rtasida to'ylar va oilaviy marosimlarni ixcham, mazmunan samarali tarzda o'tkazish, ortiqcha isrofgarchilik va dabdababozlik holatlarining oldini olishga qaratilgan qisqa muddatli o'quv-seminarlar tashkil etsin;

jamiyatda maromiylik kayfiyatini shakllantirish, isrofgarchilik va dabdababozlikka barham berish, shukronalik hamda me'yoriy hayot tarzini qaror toptirishga qaratilgan media va boshqa tasviriy targ'ibot vositalarini markaziy ko'chalar, aholi gavjum joylar va LED ekranlarda namoyish etish va o'rnatish choralarini ko'rsin.

6. Viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi (**Z.Aminova**), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (**O.Ravshanov**), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (**K.Karomova**), O'zbekiston musulmonlari idorasining viloyatdagi vakili (**R.Usmonov**), "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi (**B.Raximov**), tuman (shahar)

hokimlari bilan birgalikda **bir hafta muddatda** "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirishda davlat va jamoat tashkilotlarining roli" mavzusida o'quv-seminarini tashkil etsin.


7. Viloyat teleradiokanali (**J.To'ychiyev**)ga va boshqa ommaviy axborot vositalariga tadbirlarni keng yoritish, jumladan mavzuga oid maqolalar, turkum teleko'rsatuv va radioeshittirishlarni tashkil etish tavsiya qilinsin.

8. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Qobilov, F.Kushakov hamda viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Z.Aminova zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtiruvchi



I.Norqulov

 (A. Qobilov)

**Jamiyatda maromiylik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-
ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish bo'yicha viloyat tashkiliy qo'mita**

TARKIBI

1. Z.Aminova - Viloyat hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i, **tashkiliy qo'mita raisi**
2. K.Karamova - Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari, **tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari**
3. O.Ravshanov - O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi, **tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari**
4. R.Usmonov - O'zbekiston musulmonlari idorasining viloyatdagi vakili
5. B.Raximov - "Nuroniylar" jamg'armasi viloyat bo'limi raisi
6. B.Yazdanov - Viloyat transport boshqarmasi boshlig'i
7. U.Qurbonnazarov - "Qarshi xalqaro Aeroporti" MCHJ raisi
8. M.Mirzayev - "Qarshi mintaqaviy temir yo'l uzeli" unitar korxonasi direktori
9. J.To'ychiyev - Viloyat teleradiokanali direktori
10. Lavoziimga ko'ra - Tuman (shahar) hokimlari
11. L.Qambarov - Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi bosh mutaxassisi, **tashkiliy qo'mita mas'ul kotibi**

Izoh. Tashkiliy qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga uangi tauinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.